

Сабина Маматмуродова.

Студентка 202-группы факультета русского языка и литературы.
Джиззакского государственного педагогического института

г. Джиззак Узбекистан.

O'ZBEK AYOLI

Dunyoni tebratgan, mehr uyg'otgan,

Ham ona bo'lib, ham ayol bo'lgan.

Yig'laganda ham lablari kulgan

U o'zbek ayoli, o'zbek ayoli.

Bolasi uchun jonini bergan,

Boshini hech kimga ega olmagan.

To'marisning avlodi bo'lgan,

U o'zbek ayoli, o'zbek ayoli.

Uning so'zlarida go'zal she'r bo'lgan,

Nodirabegimdek shoir bo'lgan.

Eng go'zal qo'shiq allani aytgan,

U o'zbek ayoli, o'zbek ayoli.

Zulfiyaxonimning dardini bilgan,

Nam ko'zlardagi yoshini sezgan.

Dur-u gavharli o'zbek ayoli

Mehr-oqibatli o'zbek ayoli!!!

Muallif: Sabina Mamatmurodova

ONA TABIAT

To'rt faslda ham yashnagan o'zing,
Ko'rkingni olamga taratgan o'zing.
Inson lablariga tabassum berib,
Quvonchga aylangan, ona tabiat.

Shamoling sochimni silaydi asta,
Gulingdan bayramga uzarman dasta.
Shirin mevalaring totlidir buncha,
Bog'larga aylangan, ona tabiat.

Muallif: Sabina Mamatmurodova

TABIAT

Bog'larni ko'rsam, eslayman seni,
Gullarni ko'rsam, hidlayman uni.
Husni jamolingni ko'rib men oshiq,
She'rlarimni senga bitarman endi.

Tabiat, havongdan nafas olarman,
Dilimdan seni math etib kuylayman.
Asta qadamimni qo'yib so'zlarman,
Gulli bo'stonimsan o'zing, tabiat.

Muallif: Sabina Mamatmurodova

VATAN

Vatan seni bilmaganlar xor bo'ladi,
Bir qarich yer, tuprog'ingga zor bo'ladi.
Beshigini ona bilan tebratganing bilmaganlar,
Sening mehring bilmay ular xor bo'ladi.

Vatan sendan yuz o'giran farzandlaring,
Yuragiga qachonlardir qon keladi.
Vatan seni bir ona deb bilmaganlar,
Bir kun kelib ko'zlariga yosh keladi.

Tuzing yeb-u tupurganlar ko'p bo'lsa ham,
O'z bag'ringga olganingda yot bo'lsa ham.
Ammo vatan sen ularni bolam deding,
Qalbiga yo'l topganlaring ko'p bo'lsa ham.

Biz seni, biz ardoqlaymiz ishon vatan,
Or-nomus deb biz bilamiz ishon vatan!!!

Muallif: Sabina Mamatmurodova